

**MUMTOZ ADABIYOTDA AYOL TASVIRIDA IDEALLILIK,
FOJIAVIYLIK, BADIY SHAKL VA G‘OYA UYG‘UNLIGI**

Jo‘rayeva Dilorom G‘aybullayevna

*Buxoro davlat universiteti mustaqil
tadqiqotchisi*

E-mail: d.g.jurayeva@buxdu.uz

***Annotatsiya.** Maqolada mumtoz adabiyot vakillari Sayfi Saroyi, Sakkokiy, Atoiy, Navoiy, Uvaysiy hamda Ogahiy ijodida ayol tasviri, unda ifodalangan ideallilik, fojaviylik, badiiy shakl va g‘oya uyg‘unligi haqida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** gender tenglik, Sayfi Saroyi, Sakkokiy, Atoiy, Navoiy, Uvaysiy, Ogahiy, ayollar huquqi, tubolag‘a.*

***Аннотация.** В статье говорится об образе женщины, идеализме, трагизме, гармонии художественной формы и идеи, выраженном в произведениях представителей классической литературы Сайфи Сароии, Саккокий, Атой, Навои, Увайсий и Огахий.*

***Ключевые слова:** гендерное равенство, Сайфи Сараои, Саккоки, Атой, Навои, Увайси, Огахи, права женщин, преувеличение.*

***Abstract.** The article talks about the image of a woman, idealism, tragedy, harmony of artistic form and idea expressed in the works of classical literature representatives Sayfi Saroyi, Sakkokiy, Atoiy, Navoiy, Uvaysiy and Ogahiy.*

***Key words:** gender equality, Saifi Saraoui, Sakkoki, Atoi, Navoi, Uvaisi, Ogahi, women's rights, exaggeration.*

Mumtoz adabiyotda u yaratilgan tarixiy zamon va tarixiy sharoit ta‘sirida erkaklarga xos bo‘lgan ratsionallik (aqlda ilg‘orlik) hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish singari xususiyatlar yanada bo‘rttirilgan. Unga zid ravishda ayollar ularga bog‘langan, passiv, bo‘ysunuvchi va zaif qilib ko‘rsatilgan.

O‘zbek mumtoz adabiyotida yaratilgan she‘riy va nasriy asarlarda, g‘azal va dostonlarda ham xotin-qizlar gender tengligi talqiniga alohida o‘rin ajratilgani, bu muammoning azaliy ekanligidan dalolat beradi. Bu borada XIV asr o‘zbek mumtoz she‘riyatida nom qoldirgan Sayfi Saroyining (1321-1396) zamirida tarixiy voqea – Amir Temurning Xorazmga yurishi tasviri asos qilib olingan “Suhayl va Guldursun” dostonida (1394 yil) xotin-qizlarni ulug‘lab aytilgan “Xotin sodiq, ani sevgil, aziz er” da‘vati kishini befarq qoldirmaydi. Dostonda bu jumlar Yusuf husnli, alp kelbatli bosh qahramon Suhayl asir tushganda, uni ko‘rib sevib qolgan malika Guldursun chohdan qutqarishi va so‘ngra ular birga sahroga qochishlari, ammo suvsizlik va kimsasizlikdan Guldursunning halok bo‘lishi tufayli aytilgan.

Aslida Sayfi Saroyi ushbu dostonini xalq orasida Xorazm hududidagi Guldursunqal‘aning kelib chiqishini izohlash uchun yaratilgan toponimik rivoyat asosida yozgan. Ammo bu rivoyatda Guldursun o‘z eli tepasiga bostirib kelgan yov lashkarboshisi bo‘lgan yigitni sevib qolib, unga qal‘aga kirish yo‘li haqidagi sirni sotib qo‘yyadi va elu yurtining qonga botirilishiga sababchi bo‘ladi. Shuning uchun

rivoyatda u sotqin, xiyonatqor, el dushmani sifatida qoralansa, shoir uni o‘z sevgisi yo‘lida yoriga sodiq ayol sifatida madh etadi. Bu pozitsiyada ayol zoti ishq-muhabbat bobida erlar kabi mard, o‘z sevgisiga sadoqatli bo‘lishi mumkinligi ochib berilgan.

Sayfi Saroyi g‘azallarining birida ayol zoti “Topilmas husn mulkida senga teng bir qamar manzar” deya madh qilingan.

Sakkokiy ham o‘z g‘azallarining birida “Yuzungni ko‘rsa qilur gul o‘zini yuz pora, Xo‘tan yozisida ohu ko‘zingdin avvora” deya ayollar husni malohatini husni ta’lil san’ati orqali ta’riflasi, yana boshqa g‘azallarida suyukli yorga “Ey sarvinoz”, “bu makkora”, “ul oy muhtalosi” kabi istiora-undalmalar bilan murojaat qiladi.

Atoiyda g‘azallarida ham ayol go‘zalligining madhiga alohida o‘rin berilgan. Shoir ayol jamoli vasfini qilganida chamandagi gul uyatdan qizarganini mubolag‘a qiladi. Yorning uzun sochidan ko‘ngil uzmolmayotgani, sochlari tushgan oyog‘iga bosh qo‘yishga tayyorligini, go‘zal malakning sarvi ozodiga banda ekanini, ishqida qaro boshi oqarganini, mus’hafi husniga qora xoli oyatligini ta’kidlaydi.

Shoirning “Yusuf va Zulayho” nomli ishqiy dostonida Mag‘rib shohi, kofir, lekin odil shoh Taymusning go‘zal qizi Zulayho ta’rifida ham genderlik tenglik maqomi ifodasini kuzatish mumkin. Jumladan, bunda Zulayhoning nafaqat go‘zal, balki barcha fanlarni o‘zlashtirgan aqlli qiz ekani aytiladi:

Bir qizi bor edi mahi xovariy,
Orazig‘a shamsu qamar mushtariy.
Yuzi quyosh erdi, vale bezavol,
Barcha funun bobida sohib kamol.
Hosili umri edi ul shohning,
Oti Zulayho edi ul mohning.

Zulayho tushida Yusufni ko‘radi. Yusuf – Misr shahzodasi. Dostonda ular birbiriga teng ko‘rilgan.

Ulug‘ mutafakkir shoir Alisher Navoiy bunday istioralar, mubolag‘ali tasvirlar yanada ko‘p. Xususan, shoirning mashhur “Xamsa”si tarkibidagi birinchi doston “Hayrat ul abror”ning uchinchi “shohlar haqida”gi maqolotida Shoh G‘oziy o‘ziga adolat va insofni ikki guvoh sifatida qayd etgan kekxa onani “Tilla kampir”, ya’ni “Zoli Zar” nomi bilan ulug‘lashida ayollar aqlini ulug‘lash g‘oyasi aks etadi.

Xususan, shoir “Xamsa”sidagi uchinchi doston “Sab’ai sayyor”da shoh Bahrom bilan Diloromning notengligi o‘ziga xos uslubda yoritilgan. Buning sababi esa quyidagi izoh bilan berilgan:

Ishq ila shohlik muvofiq emas,
Ishq lofida shoh sodiq emas.

Shoh Bahrom hukmdorlarga xos kibru havosi, har doim qo‘l ostidagilarning shirin so‘z, maqtov eshitishni xohlagan va kutganligi sababli oddiy qiz Diloromning haq gaplarini ko‘tarolmay, uni jazolaydi.

Shohga xuddi shunday dadillik bilan javob qaytargan XVII asr Qo‘qon adabiy muhitining yorqin vakillaridan biri Dilshod Barno bo‘lib, u Amiriyning anor mevasini ko‘rsatib, “Bu haqda ne deyursan?” degan savoliga “Qizlar xuni ila to‘liribsan” degani uchun kamsitiladi.

Yana shu davrning atoqli shoirlaridan biri Jahon otin Uvaysiy yolg‘iz o‘g‘li Muhammadjonning Qashqar yurishidagi sarbozlikka jalb etilishi oqibatida, yakka-yu yagona qizi Quyoshxon esa erining azoblari tufayli o‘ttiz yoshida vafot etishi natijasida “Uvaysiyman”, “Ko‘ngul dog‘ o‘ldi...”, “Farzandi jonimni sog‘indim” singari o‘z shaxsiyati, zamon, ijtimoiy muhit bilan bog‘liq hodisalarni tasvirlab, ularga munosabat bildirgan. Shoira o‘zining mehnatu alamlarga muhtalo, qayda dard eli bo‘lsa, oshno” ekanligidan bulbul kabi nola chekadi. Zamona kulfatidin ko‘ngul dog‘ bo‘lganini aytadi. U bu haqda Amir Umarxonga yuzlangan.

Xususan, Uvaysiyning anor haqidagi mashhur chistonida ayollar gender tengligi o‘ziga xos uslubda talab qilingan:

Ul na gumbazdur: eshigi, tuynugidin yo‘q nishon,
Necha gulgunpo‘sh qizlar manzil aylabdur makon.
Sindurub gumbazni, qizlar holidan olsam xabar,
Yuzlarida parda tortig‘liq, tururlar bag‘ri qon.

Shoira zamon tazyiqi bilan haq-huquqi toptalgan, to‘rt devor ichiga solib qo‘yilgan, ilmu ziyo o‘rganishi cheklangan erksiz, bag‘ri qon xotin-qizlarni yoqlab chiqqan.

Ogahiy she‘riyatida ham ayolning go‘zalligini madh etish orqali uni ulug‘lash g‘oyasi ustuvordir. Shoir go‘zal yorga “Yuzung ochkim, quyosh sadqa bo‘lub boshingdan aylansun”, “Ey sho‘x, ko‘zu qoshingga olam gado, man ham gado” deya murojaat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zoirova A. Feministik adabiy tanqid va ayollar adabiyoti fenomeni borasida ayrim mulohazalar // Zamonaviy filologiya ilmi va lingovodidaktika masalalari. Respublika ilmiy amaliy anjumani. – Qarshi, 2021.– B. 64-66..
2. Lutfiddinova Xadicha. Estetik ideal yo‘lida. – O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1994. – №3. – B.39-42.
3. Qahramonov Q. Shoirlar ijodida Ayol ruhiyati talqini. Globallashuv muammolarining badiiy talqini va zamondosh obrazi. –Toshkent, 2018.